

BIZNES G'OYALAR HAYOTGA

Bizning yurtimizda tinchlik, bunyodkorlik, elimiz ravnaqi yo'lida mehnat qilayotgan xalqimiz farovonligini yanada oshirishda boshqa sohalar kabi banklarning ham alohida o'rnini bor. Bu borada Surxondaryo viloyatida ham katta hajmdagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Yurtimiz butun dunyo hamjamiyatining diqqat e'tiborida turgan bir paytda bizda ham katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan korxonalar barpo etilib, ular keng miqyosda faoliyat yuritmoqda. Dunyo nufuziga ega bo'lgan korxonalarining ish faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, pul to'lovlarining tezkorligini ta'minlash «Asaka» aksiyadorlik tijorat banki Surxondaryo viloyat filiali zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Mazkur moliya muassasasi tashkil etilgandan beri odamlarning farovonligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratildi. Bank filiali orqali ko'rsatilayotgan xizmat turlari yildan yilga kengayib bormoqda - yangi bank mahsulotlarini joriy etish, ularning sifatini yaxshilash borasida aniq maqsadli ishlar qilinishi bilan birga yurtimizning eng ishonchli banklaridan biri sifatida nafaqat respublikamizda, balki butun dunyoda tan olinayotganligi quvonarli holdir.

«Asaka» bank Surxondaryo viloyat filiali mijozlarga barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Aholidan va yuridik shaxslardan jalb etilgan mablag'larni iqtisodiyotning real sektoriga samarali ravishda yo'naltirib, bu mablag'larni omonatchilar, mijozlar va aksiyadorlarning manfaatlariga mos ravishda ko'paytirib bormoqda.

Bank filiali kredit portfeli hajmi 2016 yil 1 yanvar holatiga 78,7 mlrd.so'mdan oshdi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi.

Bank filiali jamoasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yanada rivojlantirish bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'tgan yili bank filiali tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga jami 45,0 mlrd.so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi.

Bank filiali tomonidan tadbirkor ayollar tomonidan taklif etilgan loyihalarni moliyalashtirish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali ularning respublikamiz iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi o'rinlarini yanada mustahkamlash hamda ularning kelgusidagi rivojlanish jarayonlariga o'z hissasini qo'shish maqsadida imtiyozli shartlarda jami 10,0 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlarning asosiy qismi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Bu orqali yangi ish o'rinlari tashkil etilib, xotin-qizlarni, ayniqsa yoshlarni, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalalari hal etilganligi, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilanganligi alohida tahsinga sazovor.

Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, ularni ish bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz Rahbari va Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan

imtiyozlardan samarali foydalanish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. «Asaka» bank Surxondaryo viloyat filiali mutaxassislari, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan turli anjumanlar va tadbirlarda faol ishtirok etmoqdalar, yosh tadbirkorlarga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy va moddiy-texnikaviy salohiyati tubdan mustahkamlanmoqda. «Gulobod Boli» fermer xo'jaligining bank bilan moliyaviy sohalaridagi hamkorligi buni yaqqol isbotlaydi. Parrandachilik xo'jaligi bankning kredit sarmoyasi tufayli qaddini tiklabgina qolmasdan bosqichma-bosqich rivojlanishga ham muyassar bo'lmoqda. Bankdan olingan kredit mablag'i evaziga yaqinda bu erda yana 10 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Eng muhimi, yetishtirilgan tuxim va parhez go'shti bozorda bu xil mahsulotlar narhining pasayishi, sifat ko'rsatkichlarining esa ortishiga olib kelmoqda.

Bank filiali tomonidan 2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga jami 59,0 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, «Asaka» bank Surxondaryo viloyat filiali tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama qulayliklar yaratish siyosati muhim ustuvor vazifalardan sanaladi. Bank filiali jamoasi mazkur sohaning rivoji iqtisodiy muvaffaqiyatlar uchun asosiy omillardan biri ekanini yaxshi anglagan xolda o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yganlar. Shuning uchun o'zlarining istiqboldagi taraqqiyotini belgilab olishda masalaning ana shu tomonini nazardan qochirmaslikka intilayotganlarini ko'rish mumkin. Natijada respublika iqtisodiyotining har tomonlama o'sishi uchun mavjud qulay shart-sharoitlar zahirida faoliyatning samaradorligiga erishilmoqda.

Bahriddin Qobilov,

«Gulnor Tekstil Yangiariq» xususiy korxonasi rahbari:

Banklarni iqtisodiyotning qon-tomirlariga qiyoslanishi bejiz emas. Banklar o'z moliyaviy mablag'lari yordamida iqtisodiyotni rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqdalar. Banklarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashlari biz uchun ayni muddao bo'lmoqda. Bu sohada «Asaka» bankining faoliyati tahsinga sazovordir. Bank sarmoyalari tadbirkorlik subyektlari faoliyati rivojiga katta madad bo'lmoqda.

Bugun mamlakatimizda kichik korxonalar ochib, mahsulot ishlab chiqarishni yoki xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilayotgan tadbirkorlarimiz safi kundan – kunga kengayib bormoqda. Buning sababi esa mamlakatimizda ishbilarmonlik harakatiga Davlatimiz Rahbari va Hukumati tomonidan barcha qulayliklar yaratib berilayotganida deb bilaman.

Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonamizning tashkil etilishiga ham ana shu e'tibor va rag'bat turtki bo'ldi.

Ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi zamonaviy uskunalalar bilan jihozlash maqsadida kredit olish uchun «Asaka» bankining Surxondaryo viloyat filialiga murojaat etdik. Bank xodimlari bizning talabimizni qisqa muddatda ko'rib chiqib, kredit ajratish bo'yicha qaror qabul qildilar. Bank krediti hisobiga xorijda ishlab

chiqarilgan zamonaviy uskunalarni keltirib o'rnatdik. Hozirda jahon standartlari talabiga javob beradigan yuqori sifatli tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarmoqdamiz. Bank kreditlari tufayli qo'shimcha 12 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. O'tgan yilda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarib, iste'molchilarga yetkazdik. Kelgusida o'z mahsulotlarimizni xorijga ham eksport qilish niyatidamiz.

Bizning bu erishgan muvaffaqiyatlarimizda «Asaka» bankning ko'magi beqiyosdir. Biz «Asaka» bank jamoasiga o'z minnatdorchiligimizni bildirib, ularning kelgusi ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Shodmon Shoymurodov,

«Barls» mas'uliyati cheklangan jamiyati boshlig'i:

Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan Respublikamizda qurilish ishlari, ayniqsa shaharsozlik ulkan darajada rivojlanmoqda. Shu sababli qurilish materiallariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shunday bir sharoitda «Asaka» bankning qo'llab-quvvatlashi natijasida qurilish uchun juda muhim bo'lgan temir-beton buyumlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga bel bog'ladik.

Tajribamga tayanib, «Asaka» bankning Surxondaryo viloyat filialidan qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit oldik. Bankning kredit mablag'lari hisobiga xorijdan zamonaviy uskunalar olishga va ishlab chiqarish binosini zamonaviy loyiha asosida rekonstruksiya qilishga erishdik. Korxonamizda iste'molchilar talabiga mos temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda, shuningdek 10 nafar yangi ish o'rinlari yaratilib, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ishga qabul qilindi.

Ta'kidlashim lozimki, «Asaka» bankda har bir mijoz, ko'rsatilayotgan tezkor va sifatli xizmatlardan, ayniqsa mijozlarga bo'lgan samimiy munosabatlaridan quvonmasligi mumkin emas. «Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun» shiori aynan ushbu bank xodimlari uchun aytilgandek.

Bir so'z bilan aytganda, «Asaka» bankning har tomonlama madadi bizning jamiyatimiz faoliyatiga muhim ko'mak bo'lmoqda. Bundan keyin ham bank hamkorligi va ko'magida xayrli va ezgu ishlarga munosib hissa qo'shishga harakat qilamiz.

Sherali Alimov,

«Chorbog' Qurilish Invest» xususiy korxonasi rahbari:

Respublikamizda tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari uchun cheksiz imkoniyatlar yaratilmoqda. Iqtisodiyotimizning bir me'yorda o'sib borayotganligi, mamlakatimiz bozorlari turli mahsulotlar va xizmatlar bilan boyib borayotganligi hamda aholimizning turmush tarzi kundan kunga yaxshilanib borayotganligi buning dalilidir. Hozirgi kunda ichki va tashqi bozorlarga tovarlar va xizmatlar yetkazib berishda tadbirkorlik subyektlari o'rtasida nihoyatda kuchli raqobatni kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining negiziga aylanib bormoqda.

Biz ham shu soha orqali faoliyat yuritib, iqtisodiyotimiz rivojiga ko'maklashish, aholi va ishbiarmonlarning shu sohadagi ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida o'z korxonamizni tashkil etdik va hisob raqamimizni «Asaka» bankning Surxondaryo viloyat filialida ochib, faoliyatimizni yo'lga qo'ydik.

Korxonamiz faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida biznes reja tuzdik. Biznes rejani amalga oshirish uchun «Asaka» bankiga murojaat etdik. Bank tomonidan bizning biznes rejamiz istiqbolli deb topilib, qisqa muddatda korxonamizga kredit ajratish bo'yicha ijobiy qaror chiqarildi. E'tiborlisi shundaki, bank xodimlarining o'z ishining ustasi ekanligi, tadbirkorlarga turli iqtisodiy tushuntirishlar va bilimlarni taklif qilishi, hujjatlarni sustkashlikka yo'l qo'ymasdan biz kutgandanda tez suratlarda tayyorlashganligi bizning mo'ljallagan loyihamizni amalga oshirishini yanada tezlashtirib yubordi.

Bankdan olingan kredit hisobiga polipropilen mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Shu bilan birga yangi loyihamiz natijasida 4 nafar yangi ish o'rni tashkil etildi.

Hozirgi kunda korxonamiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar boshqa chetdan kirib keluvchi mahsulotlar bilan bimalol raqobatlasha olishligi sababli xaridorgir hisoblanadi. Korxonamiz boshqa ushbu faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalardan o'zining mijozlari ko'pligi va talabga mos sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishi bilan ajralib turadi.

Bizning bunday muvaffaqiyatga erishishimizda «Asaka» bankning ko'magi katta ekanligini ta'kidlashimiz lozim. Bankdagi amaliyot jarayonlariga yuqori malakali xodimlarning jalb qilinganligi, bank xodimlari tomonida mijozlar mablag'larini iqtisodiy tushuntirishlar orqali to'g'ri yo'naltirilishiga beminnat yordam ko'rsatilayotganligi tahsinga sazovor.

Biz «Asaka» bank xizmatlaridan minnatdormiz. Korxonamizning faoliyat yuritishida «Asaka» bank ko'magida bundanda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga bel bog'laganmiz.

Surrayo Yakubova,

«Termiz Farovon Fayz» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari:

Termiz sanoat va transport kasb-xunar kollejini tamomlaganimdan so'ng yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga yaratilgan qulay shart-sharoitlardan ruhlanib, men ham tadbirkor bo'lay deb, yaxshi niyatlar bilan xalqimiz dasturxonini arzon go'sht va sut mahsulotlari bilan to'ldirishga astoydil bel bog'ladim va ota-onam bilan maslahatlashib, chorvachilikni rivojlantirishga ahd qildim. Shu maqsadda viloyatimizda nufuzli banklardan biri bo'lgan – «Asaka» bankning Surxondaryo viloyat filialiga murojaat qildim. Bank ma'muriyati tez fursatda zarur bo'lgan kredit mablag'ini ajratib berdi. Ushbu kredit mablag'i hisobiga zotdor qoramollar sotib olib, o'z faoliyatimni boshladim, buning natijasida 4 nafar yangi ish o'rni yaratildi.

Kelgusida sutni qayta ishlash liniyalarini olib kelib o'rnatish va xalqimiz dasturxonini yanada farovon va to'kin qilishga o'z hissamni qo'shishni niyat qilib

turibman. Buning natijasida ish o'rinlari soni 20 nafarga ko'payib, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Albatta, bu borada «Asaka» bank bizning yaqin va ishonchli hamkorimiz, doimiy madadkorimiz bo'lib qoladi.

Men «Asaka» bankning mijozlari ekanligimdan, qolaversa hozirgi kunda yurtimiz aholisi dasturxonini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ishlarda o'zimning kamtarona mehnatim bilan ishtirok etayotganligimdan g'oyat mamnunman.